

SIDDIQ MO‘MIN SHE‘RLARIDA OTA VA ONA TIMSOLI

Z. Usmonova

FDU mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Badiiy matn tahlili yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarda konseptual tahlilga e’tibor tabora ortib bormoqda. Ushbu maqola shoir Siddiq Mo‘min ijodida ota va ona konseptining ifodalanishiga bag‘ishlanib, unda shoirning konsept qo‘llash mahorati va ularning nutqiy ahamiyatiga bog‘liq tahlillar berilgan.

Kalit so‘zlar: konsept, konseptosfera, lingvomadaniy, lingvomadaniy kod, stilistik sinonim, Tezaurus.

Har bir millatning tili, uning imkoniyatlari o’sha millatning badiiy adabiyotida namoyon bo‘ladi. Badiiy adabiyot tilida til imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi esa ijodkorning lisoniy tafakkuri bilan bog‘liq hodisadir. Ijodkor so‘zga sayqal beradi: hayot chizgilari, inson qiyofasi, kayfiyati va holati, kulgu va yig‘i, atirgul bargidagi shabnam, yomg‘irdan so‘nggi rangin kamalak – kayfiyatni ifodalovchi birikmalar orqali lisoniy olam manzarasida butun borliq so‘zda jilolanadi.

Badiiy asar tilini o‘rganish va tahlil qilish bugungi kun tilshunosligining dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. Lingvopoetika sohasida tadqiqot olib borayotgan har bir izlanuvchi konsept masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Chunki, kognitiv tilshunoslikning bir bo‘lagi bo‘lgan konsept til egasining mental tafakkuri mahsulidir. Tilshunos olim O‘.Q.Yusupov tushuncha va konseptni farqlashda quyidagicha fikr bildiradi: “Konsept bilan tushunchani aysbergga o‘xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”.[1] Demak, lingvopoetik tadqiqotda ijodkor konseptlarini o‘rganar ekanmiz, unda ijodkorning ham zohiriy, ham botiniy dunyosi namoyon bo‘lishiga guvoh bo‘lamiz.

Bugungi kun tilshunos olimlari e’tiroficha kognitiv tilshunoslik psixika va psixologiya bilan bog‘liq bo‘lgani holda, aynan, inson omiliga ishora qiladi. Yana shuni ta’kidlash joizki, “konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda biror bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Shunday ekan, konsept til egasining milliy madaniyati, mentaliteti, ruhiyatini namoyon qiladi.

Har bir inson o‘zgacha bir olam bo‘lsa, uning umr yo‘li katta bir kitobdir. Kitobning qanchalik sermazmun va ifodaga boy bo‘lishi uning egasi tafakkuri bilan o‘lchanadi. Ustoz shoir Siddiq Mo‘min she’riyatida bosh mavzu inson bo‘lib, uning tasviri shoir ijodida rangin misralar, yorqin chizgilar bilan ifodalanadi. Shoir inson chizgilari orqali oila konseptosferasini yaratgan. Chunki ijodkor asarlarida ota, ona, ayol, farzand, aka-uka, opa-singil obrazlari asosiy personajlar hisoblanadi. Siddiq Mo‘min obrazlarida kishilar holati va harakati, tashqi ko‘rinishi, u yashayotgan muhit, dunyoqarash va tafakkuri aniq ifodalanadi.



Shoir ijodida oila konseptosferasi baxt va muhabbat maskani, osoyishtalik, xushnud o'tgan damlar, ota-ona, sevikli ayol, farzandlar, aka-uka, opa-singil, qarindosh va do'stlar, ya'ni dilga yaqin odamlar konseptlarida namoyon bo'ladi.

O'zbek milliy madaniyatida "ota" konseptining "oila ustuni", "oila himoyachisi", "muhim qarorlarni qabul qiluvchi", "oilaning asosiy boquvchisi" kabi ma'nolari mavjud. Tilshunos olim D.Yuldasheva ota konsepti barcha tillarda uchrasa-da, turlicha voqelanishini o'zining doktorlik (DSc) dissertatsiyasida quyidagicha bayon qiladi: "Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fanda konseptosfera atamasi birinchi D.C.Lixachyov tomonidan iste'molga kiritilgan. O'zbek tilidagi ota – osmon, ona – yer; ota qarg'ishi o'q kabi maqollarda ota konsepti qadriyat, diniy qarash, milliy-madaniy axborotni ifodalaydi, ya'ni o'zbek oilasida ota va onaning o'rnini bir xil emas, ona o'rnini kelsa, dugona, yaxshigina beminnat xizmatchi, yordamchi bo'lishi o'zbek konseptosferasida mavjud, biroq otadagi ulug'vorlik, sirlik, aql va idrok ustunligi, jismoniy va ma'naviy baquvvatlik xalqimiz qadriyati, aqidalar tarixi, urf-odat, millat, islom e'tiqodi bilan shakllangan".[2] N.J.Yarashovning doktorlik (DSc) dissertatsiyasida ham oila konseptosferasiga alohida e'tibor qaratilib, olim "ota" konseptiga quyidagi munosabat bildiradi: "O'zbek bolalar adabiyoti asarlarida ota qalqon sifatida ulug'lanib, aziz va mukarram sanalgan, bolalar tarbiyasiga xos bo'lgan voqelikni ifodalagan. Matnlarda ota konsepti umuminsoniy qadriyatlarning ramzi sifatida gavdalantiriladi. Aslida o'zbek oilalarida ota oilaning or-nomusini saqlovchi posboni, oila boshi sifatida hurmatlanadi.[3]

Agar biz bu o'rinda "ota"ni konsept sifatida talqin etsak, uning bir qancha periferiyalarini shoir Siddiq Mo'min satrlarida aniqlashimiz mumkin.

Aylanayin bo'yingdan, ko'zlaringga ko'z tumor,

O'tir, o'g'lim, sen uchun aytadigan gapim bor .

Pahlavonim, shunqorim, qil so'zimga e'tibor:

Osmonda bir xudo-yu, Yerdan yolg'iz otang bor.

Ushbu satrlarda ota nasihatgo'y, bir o'rinda ona pozitsiyasida yumshoq ko'ngil, erkalovchi (Aylanayin bo'yingdan, ko'zlaringga ko'z tumor), bir o'rinda qat'iyatli (O'tir, o'g'lim, sen uchun aytadigan gapim bor), yana bir o'rinda muhabbatli, nasihatgo'y va ulug'vor (Pahlavonim, shunqorim, qil so'zimga e'tibor, Osmonda bir xudo-yu, Yerdan bitta otang bor) lik kasb etuvchi shaxsga aylanadi. Shuningdek, she'rlarda quyidagi periferiyalar namoyon bo'ladi:

Ota - armon:

Mo'rtsan, hali bilmaysan, dunyoning ne ekanin,

Otasizlar hayotda tinmayin pand yeganin.

Sizlarmidi hammani, Tog'a, xola, ammani?

Sog'indim, izi qani? – Dadamni ko'rgan odam

Ota - davlat:

Otasi bor o'g'ilning qo'ltig'ida noni bor

Ota - nozik ko'ngil egasi:

Qiyomat bo'lgani shu –otang agar ranjisa,

Ranjisa emas, hatto bir ozgina injisa.

Ota - boquvchi, ta'minotchi:

Otadek mehribon yo'q: hamma aybing kechirar,
Yemasdan yediradi va ichmasdan ichirar.

Ota – kechirguvchi:

Ko'rdim otasin xo'rlab, mehrga zor qilganni,
Uyga sig'dirmay haydab, ko'chada xor qilganni.
Shunda ham ota yig'lab, o'g'lin duo qilganni

Ota - ustoz:

O, otajon, o'g'lingizga mushkul savol berdingiz –
Olamning bor muammosin bitta ipga terdingiz.

Ota - omonat;

Endi unga yaqin bozordan mozor,

Balki ushbu fasl – so'nggi yozidir.

Ko'rinadiki, o'zbek oilasi konseptosferasida ota muhim konsept sifatida voqelanadi. Ayniqsa, shoir Siddiq Mo'min ijodida otaga qadriyatlarga ko'ra munosabatda bo'lish, uni e'zozlash, ehtirom ko'rsatish sabablari misralarga singdiriladi. Zero ijodkor, otaga bozordan mozor yaqinligini, ushbu fasl uning so'nggi yozi bo'lishi mumkinligini juda ta'sirli ifodalay olgan. Inson uchun ota-ona birdek aziz, ammo dunyoga kelishimizda onaning mehnati, qiyinchiligi, dardi ko'proq ekanligi nuqtai nazaridanmi ko'p muqaddas tushunchalar ona bilan bog'lanadi. Qalam ahli borki, onaga bag'ishlab ijod qiladi. Ijodkor ona haqidagi kechinmalarini unga cheksiz ehtirom va muhabbat sifatida tarannum etadi. Shoir satrlarida “ona” konsepti ham lingvomadaniy, ham lingvopsixologik hodisa sifatida voqelanadi. Konsept mohiyatini yoritgan lisoniy birliklar o'quvchi ko'z ongida Ona qiyofasini yanada yorqin namoyon qilish bilan birga, undagi mas'ullik, sog'inch, shukronalik yoki izzitirob kabi tuyg'ularni junbushga keltiradi.

Ikki kun ko'rmasa qo'msardi onam,

Takror aytilardi sog'inchli jumla:

- O'zing esonmisan, sog'misan, bolam,

Onam borlar, deya yuribsanmi –a?..

Yuqoridagi satrlarda shoir ona konsepti orqali farzandi yo'liga nigoron, mushfiq ona qiyofasini yaratmoqda. Birgina “qo'msardi” stilistik sinonimining qo'llanilishi onaning birovga arz qilmay, indamaygina, ichidan, qalban sog'ishini ifoda qilmoqda. Stilistik sinonimlar – har qanday tekstda teng ishlatilmaydigan, ma'no nozikliklari farq etilib qo'llanadigan sinonimlardir.[4] Siddiq Mo'min nutqidagi “-O'zing esonmisan, sog'misan, bolam” satrlari hamisha bolasini o'ylashi, ulg'aygan bolasidan ham xavotir olayotgaligi, mushtipar, mushfiq ona timsolini gavdalandirmoqda. Onam borlar, deya yuribsanmi-a?.. misrasida esa, dunyoda ona ham omonat, g'animat ekanligini eslatadi, farzandini g'aflatda qolmaslikka chorlaydi. Konseptning lingvomadaniy tadqiqida narsa-hodisalar bilan bog'liq predmetli kodlar millat turmushida keng o'rinishgan, hayotning ajralmas qismiga aylangan predmetlar bilan ifodalanadi. “Predmetlarning hajmi (kata kichikligi), miqdori (kam yoki ko'pligi), nima maqsadda ishlatilishi kabi ma'nolar ramziy ma'noda qo'llanilib kodlashtiriladi. Masalan: xamir, qil, to'n, do'ppi, igna, yoqa, tayoq

kabi soʻzlar oʻzbek lingvomadaniyatiga mansub kishilarning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda vosita vazifasini bajaradi.[5] Masalan, quyidagi satrlarda Ona – mehmon, musofir maʼnolarini ifodalagani holda, uning chizgilari “boshingizda tuguncha” jumlasidagi “tuguncha” predmetli kodi orqali lingvomadaniy belgi sifatida ifodalangan. “Tuguncha” predmetli kodi birinchi navbatda yoʻlga otlanmoq maʼnosini ifodalab, aynan, oʻzbek ayollariga xos boʻlgan odat, onaxonlarning tugunchasini boshiga qoʻyib oʻgil-qizi, qarindosh-urugʻinikiga borishi lisoniy birlikda voqelanadi:

Boshingizda tuguncha, Qayga shoshasiz buncha?

Biznikida besh kuncha Qolasizmi, Onajon?..

Maʼlumki, badiiy asar har qanday tilning imkoniyatlari doirasini koʻrsatib beruvchi manbadir. “Agar tilning barcha jihatlarini oldindan aytib berish mumkin boʻlganida edi, badiiy ijod haqida soʻz yuritishga hojat qolmasdi. ”

Shoir Siddiq Moʻmin ijodini tadqiq etar ekanmiz, ona konseptining aynan aytilishi zarur boʻlgan maʼnolari yoritib berilganiga guvoh boʻlamiz.

Ona – baraka tashuvchi:

Siz kelsangiz, kelar farishta, Uyimizdan arimas mehmon.

Qut-baraka boʻlar har ishda – Biznikidan ketmang, buvijon.

Ona – osoyishtalik posboni:

Solinmaydi qovoq-tumshuqlar, Bilinmaydi baʼzi kemptiklar.

Bejo miyovlamas mushuklar, Biznikidan ketmang, buvijon.

Ona – beminnat boquvchi:

Siz sira olmay malol, Boqdingiz bizni halol,

Rizqingizni bemalol Terasizmi, onajon.

Ona – duogoʻy:

Gar tilasa momolar, Oʻzgaradi havolar,

Oʻgʻlingizni duolar Qilasizmi, onajon.

Ona – ilhom bagʻishlovchi:

Bilib oldimmi mashqin – Ilhomim kelar joʻshqin

Yuraginga sheʼr ishqin Solasizmi, Onajon?

Shoirning eng sara sheʼrlari qatoridan joy olgan “Onalar zikrida”, “Biznikidan ketmang, buvijon”, “Onamning nasihati”, “Sira shoshmang, buvijon”, “Onajon”, “Oilamiz “Barogʻi”, “Onamning nazarida”, “Onajonim toʻqsonga toʻldi”, “Sovgʻa”, “Toʻqson yoshli chaqaloq”, “Ikki yodim sizlarda”, “Buvim yuzga kiradi”, “Endi men nima deb javob beraman”, “Onam yashagan hovli”, “Buvim bilan shartnoma” sheʼrlarining barchasida ona konsepti turli periferiyalarda voqelanadi. Ayniqsa, “Endi men nima deb javob beraman” sheʼridagi ona konsepti shoir ijodidagi ona konseptlarining yadrosi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Chunki, sheʼrda onaning omonat ekanligi, xotiraga aylanishi, hamda uning bir umr sogʻinchli armon boʻlishi taʼsirli jumalalarda ifodalangan: Men buni hazilga yoʻyib yurardim, Baʼzan sogʻintirib qoʻyganligim rost. “Onang bormi?” desa bor, deb yurardim, Lek ogʻrib qoldilar, bir kuni bexos.(ona – omonat) Bunchalar jumboqsan, ey sirli hayot? Soʻzlarin eslasam, jismi jonlanar. Negadir koʻnglimdan oʻtadi bot-bot Onam takror aytgan tanish jumlar. (ona –

xotira) Har turli nigohdan hikmat teraman, Hushyorman so‘rovli nazar solsalar, Endi men nima deb javoib beraman “Onang bormi” deya so‘rab qolsalar.(Ona – sog‘inchli armon) Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Siddiq Mo‘min she‘rlarida qo‘llangan ota va ona konseptlari shoir ijodining eng aktual konseptlari sifatida ijodkor Tezaurusini yaratishga asos bo‘ladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pinxasov Y.D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. “O‘qituvchi” Toshkent -1969 17-bet
2. Yusupov O‘.Q-Ma‘no,tushuncha, konsept va lingvokulturologiya atamallari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.-Toshkent,2011.-49-bet
3. Yuldasheva D. M. O'zbek bolalariga xos og‘zaki va yozma matnlarning antroposentrik tadqiqi. DSc Farg‘ona – 2022
4. Yarashova N. J. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi . DSc Samarqand – 2023
5. Siddiq Mo‘min. Biomaydon. “Farg‘ona” nashriyoti – 2022.
6. Siddiq Mo‘min. Mendan mehr kutayotganlar. “Farg‘ona” nashriyoti – 2007.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvomadaniy-kodlar-va-ularning-turlari-haqida>

